

**TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA OID
КОМПЕТЕНСИYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY-IJTIMOIY
PEDAGOGIK ASPEKTLARI**

G’aynazarov Bunyodbek Dilshodbekovich

O’zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasи

Katta o’qituvchisi

Andijon qishloq xo’jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Doimo sog‘lom yashash va uzoq umr ko‘rishga insoniyat azalazaldan intilib kelgan. Shu nuqtai nazardan oladigan bo‘lsak har qanday jamiyatning oldida turgan asosiy vazifa insoniyatning ana shu intilishlarini ro‘yobga chiqarishdan, ya’ni kishilar sog‘liq va uzoq umr ko‘rislari uchun sharoit yaratishdan iborat. Hamma davrlarda ham sog‘lom turmush tarzi sog‘liqni saqlashning asosiy omillaridan, talablaridan hisoblanib kelgan. Shuningdek, Har qanday jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri sanaladi.

Kalit so’zlar. Milliy boylik, milliy qadriyat, ta’lim, sog‘lom turmush tarzi, sog‘liq, sog‘lom, insoniyat, ma’naviy va jismoniy sifatlar.

**ИСТОРИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ РЕДАКЦИОННЫЕ АННОТАЦИИ
РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У
СТУДЕНТОВ**

Гайназаров Бунёдбек Дишодбекович

Кафедра педагогики узбекского языка и физической культуры

Старший преподаватель

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация. С незапамятных времен человечество всегда стремилось жить здорово и прожить долгую жизнь. С этой точки зрения главной задачей, стоящей перед любым обществом, является реализация этих стремлений человечества, то есть создание условий для жизни людей здоровой и долгой жизни. Во все времена здоровый образ жизни считался одним из основных факторов и требований здравоохранения. Также в современную эпоху развития любого общества всестороннее воспитание молодого поколения является одним из важнейших вопросов.

Ключевые слова. Национальное богатство, национальная ценность, образование, здоровый образ жизни, здоровье, здоровье, человечность, духовные и физические качества.

HISTORICAL AND SOCIAL EDITORIAL ANNOTATIONS OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY LIFESTYLE COMPETENCIES IN STUDENTS

Gaynazarov Bunyodbek Dilshodbekovich

Department of Pedagogy of Uzbek Language and Physical Culture

Senior Lecturer

Andijan Institute of Agriculture and Agricultural Technologies

Annotation. Since time immemorial, humanity has always strived to live healthy and live a long life. From this point of view, the main task facing any society is the realization of these aspirations of humanity, that is, the creation of conditions for people to live a healthy and long life. At all times, a healthy lifestyle has been considered one of the main factors and requirements of health care. Also, in the modern era of development of any society, the comprehensive education of the younger generation is one of the most important issues.

Keywords. National wealth, national value, education, healthy lifestyle, health, health, humanity, spiritual and physical qualities.

O‘zining salomatligi haqida shaxsan g‘amxo‘rlik qilish sog‘lom turmush tarzini ga oid kompetensiyalarini yoshlikdan oila va ta’limning barcha bosqichlarida jismoniy tarbiya va sportning ko‘magida singdirib borish kerak. Insonlar endilikda faqatgina so‘zda emas, balki amalda salomatligining qadriga yetib, uni milliy boylik, milliy qadriyat sifatida qarashga o‘tishlari lozim bo‘ladi.

Qadimgi faylasuf olimlar – Platon, Aristotel va boshqalarning asarlarida tarbiya ta’lim tizimida hamda insonlar solomatligi mo‘tadilligini ta’minlashda jismoniy tarbiyaga yuksak baho berilgan.

Platon (miloddan avvalgi 427-347 y.y.) Afina zodagonlari vakili, faylasuf-idealyst, insonning ma’naviy va jismoniy sifatlari haqidagi nazariyaning asoschisidir. U Sparta tizimiga moyillik bildirib, harbiy-jismoniy tarbiyani aqliy tarbiya va ta’lim bilan qo‘shib olib borishni ko‘zda tutdi. Platon o‘zining asarida shunday degan: “Yaxshi gimnastika oddiy bo‘ladi, lekin eng avvalo, harbiy gimnastika bo‘lishi lozim”.

Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 y.y.). Yirik olim va faylasuf, Platonning talabasi va Aleksandr Makedonskiyning ustozi bo‘lgan. Aristotel shakl va mazmun birligi haqidagi g‘oyani ilgari surgan. Shu bilan birga borliqning rivojlanishini isbotlagan. Insonning ruhi va tanasi ajralmas holda bog‘liq ekanligini tushuntirib bergen. Aristotel o‘g‘il bolalarni jismoniy jihatdan mustahkam qilib tarbiyalash

tarafdori bo‘lgan. U Platondan farqli o‘laroq tarbiyada ko‘proq ta’lim-tarbiyaga o‘rin berishni, gimnastika mashqlari hajmini kamaytirishni tavsiya etgan. Chunki gimnastikada ko‘proq harbiy jismoniy tarbiya va ta’lim ko‘zda tutilgan va u bolalar uchun juda murakkab jarayon, deb hisoblagan. Demokrit (miloddan avvalgi 460-370 y.y.) jismoniy mashqlar insonning shakllanishida muhim o‘rin tutadi, ya’ni tabiiy holatni rivojlantirishda ustunroqdir, deb ta’lim bergan. Sokrat (miloddan avvalgi 469-399 y.y.) aytishicha, mustahkam sog‘liq ko‘pgina illatlardan saqlashga kafolatdir. Qadimgi grek shifokori Gippokrat (miloddan avvalgi 460-375 y.y.) ta’biri va ta’limi bo‘yicha, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish turli xil kasalliklarni oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, hozirgi kunda respublikamizda aholi turmush farovonligini oshirish, sog‘lig‘ni mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni aholi o‘rtasida ommalashtirish, yosh avlodni aqlan sog‘lom va jismonan barkamol qilib tarbiyalash bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kundagi o‘troq faoliyat turlarining tobora rivojlanib borishi, shaxsiy transportdan foydalanish koofitsentining ortishi insonlarda jismoniy faolligini pasayishiga olib kelmoqda. Buning natijasida yurak-qon tomir, ovqat xazm qilish tizimi buzilishi, ortiqcha vazn paydo bo‘lishi kabi kasalliklarni yuza kelishiga olib kelmoqda.

Tabiiyki, bu omillar Respublika aholisining qariyb 40 foizini tashkil etuvchi yoshlar salomatligiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Bunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi alohida ahamiyat kasb yetadi. Ma’lumki, barcha davlatlarning ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bu ta’lim oluvchilarining sog‘lom turmush tarzini olib borishi, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi, buning uchun talab etiladigan sport infratuzilmasidan foydalanishi uchun sharoit yaratishdir. Jismoniy tarbiya va sport inson salomatligini saqlash, mustahkamlashga, jismoniy yuksalishga va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga hissa qo‘sishi shubhasizdir. Faol sport bilan shug‘ullanish natijasida ortirilgan qobiliyatlar va qadriyat yo‘nalishlari sog‘lom turmush tarziga barqaror ehtiyojni shakllantiradigan, shaxsning o‘zini o‘zi boshqarishning motivatsiyalangan, individual jarayoniga aylanadi.

Sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish muammosi yechimi talabalarning sport o‘yinlari, turizmning faol turlari bilan shug‘ullanishga qaratilgan shaxsiy motivatsiyasiga, oliy ta’lim muassasasining ta’lim maydonida ushbu jarayonni pedagogik qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq. Shu munosabat bilan talabalarining sog‘lom turmush tarzi ga oid kompetensiyalarinirivojlantirish muammosini o‘rganish katta ahamiyatga ega xisoblanadi.

Garvartlik Monique Tello “Sog‘lom turmush tarzi: uzoq umr ko‘rishning 5 ta kaliti” nomli maqolasida beshta tanlangan sog‘lom odatlar majmuasidan doimiy foydalanish tavsiya etiladi, chunki ko‘plab tadqiqotlar ularning inson salomatligiga foydali ekanligini, erta o‘lim xavfini kamayishiga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Bu sog‘lom odatlar quydagilar(1-rasm):



**1-rasm. “Sog‘lom turmush tarzi: uzoq umr ko‘rishning 5 ta kaliti
(Garvartlik Monique Tello)**

Shunday qilib, sog‘lijni saqlash va mustahkamlash muammolari, talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish, harakat faolligini yaxshilash va uzoq umr ko‘rishni to‘laqonli uzaytirish oliy ta’lim muassasalarida o‘qish vaqtida ham tugallangandan keyin ham dolzarbligicha qolaveradi. Har qanday davrda ham sog‘liq yeng yuqori qadriyat, faollik, ijodiy hayot asosi, insonning baxt-saodati, quvonchi va farovonligi hisoblangan. Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarzi omon qolish shartiga aylanadi. Avvalo, inson o‘zining salomatligi uchun o‘zi javobgardir. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalari talabalarining sog‘lom turmush tarzi ga oid kompetensiyalarinirivojlantirish, uni targ‘ib qilish zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki, olimlar talabalarni sog‘lom turmush tarzini saqlash uchun motivatsiya yetishmasligini, oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayoniga talabalar sog‘ligini saqlash va mustahkamlashga, ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan zamonaviy sog‘lijni saqlash texnologiyalarini

yeterli darajada qo‘llamasliklari ta’kidladilar. Biroq, muammoning dolzarbliji jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ilmiy-texnik taraqqiyotini sekinlashtirishi va hatto to‘xtatishi mumkin bo‘lgan demografik inqiroz tufayli yuzaga keladi.

Inqiroz holatining sabablari orasida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik inqirozlar, ta’lim tizimini tashkil etish va sog‘liqni saqlash strategiyasidagi kamchiliklar mavjud bo‘lib, bu sezilarli psixo-emotsional yuklama bo‘lib va odamlarning harkat faolligini yeterli darajada emasligi keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari talabalari salomatligi darajasining tez pasayishiga olib keladigan salbiy tendensiyalar sog‘liqni saqlash madaniyatining yetishmasli va inson tomonidan sog‘lom turmush tarzi normalari va qoidalariga rioya qilinmasligini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, mazkur maqola yuzasidan mamlakatimiz va xorij adabiyotlari manbaalarida yoritilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini pedagogik tahlil qilish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnama, joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahlili asosida Talabalarda sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2015 y. O‘RQ-394-son “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. <https://lex.uz/docs/-2742233>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yil “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. Abdukodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izoxli lug‘ati. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. - 44 b.
5. Abdulla Avloniy. Abdulla Avloniy (Tanlangan asarlar) 2-jild. Tuzuvchi: Begali Qosimov. - Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti. 2009.
6. Raximov V. Ekologik noqulay sharoitlarda yashovchi talaba qizlarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi texnologiyasi (Xorazm viloyati misolida). Ped. fan. nom. dis. - Toshkent, 2008. – 248 b.
7. Рахимов В.И. Современная дидактическая модель подготовки кадров спортивно-оздоровительного туризма как фактор развития здорового

образа жизни студентов. // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари илмий-амалий журнал. № 12 2021. 10-24 стр.